
KO'TARINKI KAYFIYAT ULASHILDI

Soy bo'yi mahallasida pandemiya davrida aholi va yoshlarni bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlari va ularga ko'tarinki kayfiyat ulashish maqsadida tuman Madaniyat markazi tomonidan "Mahalla qadiriya maskani" mavzusida madaniy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi. Unda mahalla fuqarolar yig'ini xodimlari, mahalla faollari, ayollar va yoshlar ishtirok etdilar.



Tadbir davomida konsert dasturi namoyish etildi. Madaniyat markazi qoshidagi “Kabutar” folklor etnografik xalq jamoasi badiiy rahbari A.Turg’unov boshchiligidagi ansambl ishtirokchilari va xonandalar M.Qosimov, Z.Qosimov, X.Raxmonovlar tomonidan ijro etilgan sara kuy-qo’shiqlar barchaga birdek manzur bo’ldi.



Ushbu tadbirlar Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi, Yoshlar ittifoqi tuman Kengashi bilan hamkorlikda Boltako'l, Qumtepa, Garmdon mahalla fuqarolar yig'inlarida ham bo'lib o'tdi.

Tadbirlarda tuman Madaniyat markazi xodimlari va xavaskor yoshlar ishtirokida konsert dasturlari namoyish etildi. Yoshlar ishtirokida sport musobaqalari ham tashkil etildi.

A.AHMADJONOV,

tuman Madaniyat markazi mutaxassisi.

2021-01-20 14:35:19